

FUQAROLIK VA OILA HUQUQI MASALALARI BO'YICHA XORIJIY SUD HUJJATLARINI IJRO ETISH

Abdug'afforov Ahror Akramovich

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ahror_surxon@mail.ru +998996706484

Annotatsiya: *Ushbu maqola fuqarolik va oila huquqi masalalari bo'yicha xorijiy sud hujjatlarini ijro etish masalalari mohiyati hamda mazmuni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, sud qarori, sud topshiriqlari, Minsk konvensiyasi, Gaaga konvensiyasi, Kishinyov konvensiyasi.*

Har bir davlatda hokimiyat organi sifatida sudning funksiyalari va ularning vazifalari ayni shu davlat hududi chegaralari bilan cheklanadi. Shu sababli chet elda protsessual harakatlar sodir etish uchun bir davlat sudi boshqa davlatning sud organlariga yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ladi. Xalqaro jamiyatda hamkorlikning rivojlanishi shunga olib keldiki, sud topshiriqlarini bajarish bilan bir qatorda huquqiy yordam ko'rsatish tushunchasidan ancha keng tarzda foydalana boshlandi. Bunda xalqaro xususiy huquq sohasida nafaqat sud topshiriqlarini ijro etish, balki chet el huquqi to'g'risida axborot olish ham tushuniladi. Sud topshirig'i deganda, xalqaro amaliyotda bir davlat sudining boshqa davlat sudiga shu davlat hududida protsessual harakatlar amalga oshirish to'g'risida yordam so'rab murojaat qilishi tushuniladi.

Chet davlat sudlarining belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida bergan topshiriqlari quyidagi asoslarga ko'ra bajarilmaydi:

1) topshiriqni ijro etish O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga zid bo'lsa yoki uning xavfsizligiga tahdid solsa;

2) topshiriqni ijro etish sudning vakolatiga kirmasa.

Birinchi asos ommaviy tartib to'g'risidagi izohning protsessual ma'nodagi ta'rifidir. So'z chet davlat huquqi uning ommaviy tartib bilan mos kelmaganligi uchun qo'llanishi mumkin emasligi haqida emas, balki topshiriqning ijro etilishi O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga zid bo'lsa yoki uning xavfsizligiga tahdid soladigan boisa, u holda uning man qilinishi haqida boryapti. Ikkinchi asos - vakolatli bo'lmaganlik tufayli ijro etmaslik - ommaviy tartib to'g'risidagi izohning tarkibiy qismi emas, u protsessual huquqdan kelib chiqadi.

Chet el sud qarorini tan olish davlatni, fuqarolik va boshqa huquqlarni ta'minlashda xuddi o'z davlati sud qarorini ijrosini ta'minlagandek, ta'minlash majburiyatini olganligini tasdiqlaydi. Rus olimi M.Boguslavskiyning fikriga ko'ra, ba'zi hollarda sud qarorini tan olishning o'zi kifoya qiladi va bu qarorni ijro etilishi talab etilmaydi (masalan, nikohni bekor,

vasiy yoki homiy tayinlash va boshqalar). Boshqa vaziyatlarda esa qarorni ijrosini ham ta'minlash talab qilinadi, ya'ni ijroni ta'minlaydigan maxsus jarayon amalga oshiriladi (ijro varaqasini berish va maxsus reestrдан ro'yhatdan o'tkazish). Shunday qilib, chet el sud qarorini tan olish uni ijrosini majburiy tartibda ta'minlashni anglatadi. Majburiy tartibda ijro etish uchun, odatda, chet el qarorini tan olishga nisbatan qo'shimcha talablar belgilanadi.

Jahonning rivojlangan dunyo mamlakatlarida chet el sud qarorlarini ijro qilish jarayoni bir-biridan o'zaro farqlanishi ma'lum. Chet davlat sud qarorini dastlabki ijrosini ta'minlash sharti odatda milliy sud qarori bilan tan olinganligi bilan belgilanadi. Ba'zi bir davlatlarda (masalan, Italiyada) sud qarorini ijro etish uchun uni to'g'riligi formal nuqtayi nazardan tekshirib chiqish talab etiladi, shuningdek, chet el sud qarori tan olinishi so'ralayotgan sud joylashgan davlatning ommaviy tartibiga va boshqa bir qator shartlarga javob berishi kerak bo'ladi. Boshqa bir qator Yevropa mamlakatlarida esa (Germaniya, Fransiya, Belgiya va boshqalarda) ekzekvatorlami berilishi kifoya qiladi. Ekzekvator deganda, chet el sud qarorining tan olinishini so'rab qilingan iltimosnomani ko'rib chiqilgandan keyin sud tomonidan chiqariladigan ijroni ta'minlashga ruxsat beradigan maxsus qaror (ajrim) tushuniladi. Uchinchi guruh davlatlarda esa chet el sud qarorini tan olish va ijro etishda o'zarolik tamoyili asosida kelishuvi mavjud bo'lgan mamlakatlarda qaror maxsus davlat organi tomonidan reestrдан ro'yxatdan o'tkazilishini o'zi kifoya qiladi (masalan, Buyuk Britaniyada reestrдан ro'yxatdan o'tkazish fuqarolik ishlari bo'yicha Yuqori sud tomonidan amalga oshiriladi). Ro'yxatdan o'tkazish o'z o'rnida, qarorni ma'lum bir talablarga javob berishni talb qilishi mumkin. Litviya davlatining 2002-yilda qabul qilingan Fuqarolik Protsessual Kodeksiga muvofiq, chet el sud qarorlari tan olinadi va ijro etiladi, agar mazkur Kodeksda shunday sud qarorini tan olish va ijro etishni rad etish asoslari belgilangan bo'lmasa sud qarorini qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi va o'zarolik talabi belgilanmaydi.

Tijorat arbitrajining qarorlarini tan olish va ijro etish tartibi universal, mintaqaviy shartnomalar, ikki tomonlama bitimlar va milliy qonunchilik bilan belgilanadi. Xususan, BMTning 1958 yildagi Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi konvensiyasi (Nyu-York konvensiyasi) bunday qarorlar tan olinishi va ijro etilishi ta'minlangan davlatdan boshqa davlat hududida chiqarilgan hakamlik sudlarining qarorlarini tan olish va ijro etish masalalarini tartibga soladi. Tomonlar ham jismoniy, ham yuridik shaxslar bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarda ham bu amalda bo'ladi. Bu, shuningdek, tan olish va ijro etish talab qilinadigan davlatda ichki qarorlar hisoblanmaydigan hakamlik sudlarining qarorlariga ham taalluqlidir.

1971-yil 1-fevralda Fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi qabul qilingan. Gaaga konvensiyasi bu bir davlatning yuridik organlari tomonidan boshqa ahdlashuvchi davlatlarda qabul qilingan sud qarorlarini ijro etishini tartibga soluvchi ko'p tomonlama shartnoma hisoblanadi.

Gaaga konvensiyasiga ko'ra ma'lum bir davlat quyidagi hollarda xorijiy sud qarorini ijro eta olmaydi:

- Hukm sud tomonidan qonuniy protsess talablariga mos keladigan tartib-qoidalar asosida chiqarilmagan bo'lsa;
- Chet el sudi ushbu masala bo'yicha yurisdiksiyaga ega emas bo'lsa;
- Sudlanuvchi o'zini himoya qilish uchun yetarli muddatda sud jarayoni haqida xabar olmagan bo'lsa;
- Sud qarori noqonuniy yo'l bilan olingan bo'lsa;
- Sud qarori ijro talab qilinayotgan davlatning davlat siyosatiga zid bo'lsa;
- Sud qarori boshqa hukmga zid bo'lsa ;

1954-yil 1-martdagi Gaaga konvensiyasi qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida Chet davlat sudi yoki hakamlik qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnoma yozma shaklda beriladi va da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

Iltimosnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) iltimosnoma berilayotgan fuqarolik sudining nomi;
- 2) chet davlat sudining nomi va joylashgan joyi yoki hakamlik sudining nomi hamda tarkibi, uning joylashgan joyi;
- 3) undiruvchining nomi, uning joylashgan joyi yoki turarjoyi;
- 4) qarzdoming nomi, uning joylashgan joyi yoki turarjoyi;
- 5) undiruvchi tan olish va ijroga qaratishni iltimos qilayotgan chet davlat sudi yoki hakamlik sudining qarori haqidagi ma'lumotlar;
- 6) undiruvchining talabi;
- 7) ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi sudlariga topshirilayotgan chet davlat sudi qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomaga Gaaga konvensiyasi 3-moddasida. Minsk konvensiyasi 53-moddasining ikkinchi qismidagi yoki O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama shartnomasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Hozirgi vaqtda milliy huquq tizimida O'zbekiston Respublikasi hududida chet el sudlarining qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi huquqning ikki tarmog'i mavjud: fuqarolik protsessual huquqi (iqtisodiy protsessual huquq) va ijro protsessi.

Fuqarolik protsessual huquqi sohasida xorijiy davlatlarning sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 42-bobi bilan tartibga solinadi. (Xorijiy sudlar va xorijiy arbitraj sudlari (arbitraj) qarorlarini tan olish va ijro etish). Xorijiy sudlarning va xorijiy arbitraj sudlarining (hakamlik sudlarining) qarorlari, agar bu O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa, tan olinadi va ijro etiladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sudlari chet el sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorlarini, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi jinoiy ishlar bo'yicha hukmlarni, shuningdek chet el

hakamlik sudlari (arbitrajleri) tomonidan fuqarolik nizolari bo'yicha chiqarilgan qarorlarni tan olishi va ijro etishi mumkin.

Xorijiy sudlarning yoki xorijiy arbitraj sudlarining (hakamlik sudlarining) hal qiluv qarori, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran uch yil ichida majburiy ijro uchun taqdim etilishi mumkin. Xorijiy sudlarning qarorlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasida tan olinadi va ijro etiladi. Chet el sudining hal qiluv qarorini ijro etish uchun hududida ijro etish so'ralayotgan davlatning vakolatli sudidan ekzekvatura (ruxsat olish) zarur.

O'zbekistonda asosan shartnoma ekzekvaturasi mavjud: agar qaror kelib chiqqan davlat bilan kelishuv mavjud bo'lsa, u holda uni tan olish va ijro etish mumkin. Bundan tan olish va ijro etishni rad etish asoslariga nisbatan nima kelib chiqadi? Qarorni ijro etishni rad etishning barcha asoslari qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksining 370-moddasiga muvofiq, Sud chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olishni va ijroga qaratishni quyidagi hollarda to'liq yoki qisman rad etadi, agar:

1) hududida hal qiluv qarori qabul qilingan davlatning qonuniga binoan u qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa;

2) hal qiluv qarori o'z zarariga qabul qilingan taraf ishni ko'rib chiqish vaqti va joyi to'g'risida o'z vaqtida hamda belgilangan tartibda xabardor qilinmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra sudga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmagan bo'lsa;

3) ishni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga yoki qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sudining mutlaq vakolatiga tegishli bo'lsa;

4) O'zbekiston Respublikasi sudining ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa;

5) O'zbekiston Respublikasi sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizoga doir ish mavjud bo'lib, u yuzasidan ish yuritish chet davlat sudida ishni yuritish qo'zg'atilganidan oldin qo'zg'atilgan bo'lsa;

6) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini majburiy ijroga qaratish muddati o'tgan bo'lib, bu muddat sud tomonidan tiklanmagan bo'lsa;

7) taraf nizoning vakolati bo'lmagan chet davlat sudi tomonidan hal etilganligini isbotlovchi dalilni taqdim etgan bo'lsa;

8) hal qiluv qarori chet davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilingan bo'lsa;

9) hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining chet davlat sudi yoki chet davlat hakamlik sudi (arbitraji) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq xalqaro shartnomalari ishtirokchisi bo'lmagan chet davlat sudi tomonidan chiqarilgan bo'lsa;

10) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonunchilikning asosiy prinsiplariga zid bo'lsa.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin .

Xorijiy sudning yoki xorijiy arbitraj (arbitraj)ning hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin.

Milliy protsessual qonun bilan belgilangan ushbu asoslar hosilaviy, ikkilamchi ma'noga ega. Boshqacha qilib aytganda, har bir aniq holatda dalillar va sud nazorati mavjud bo'lmaganda, u tegishli xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan rad etish asoslari bilan cheklanadi. Bu ekzekvaturada nazoratni kengaytirish uchun milliy protsessual qonunlardan subsidiar foydalanishni butunlay istisno qilishi kerak.

Majburiy ijro etish tartibi hududida ushbu ijro amalga oshirilishi lozim bo'lgan Ahdlashuvchi tomonning qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik va oilaviy ishlar bo'yicha hal qiluv qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari bo'yicha vakolatli organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Ta'kidlash joizki, milliy qonunchilikda, xususan, Jinoyat-protsessual kodeksida O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy sudlarning hukmlarini tan olish va ijro etish mexanizmi mavjud emas. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarning ushbu masala bo'yicha qoidalari deklarativ xususiyatga ega .

Xalqaro xususiy huquqda shuningdek Kishinyov konvensiyasi ham qabul qilingan. Ushbu hujjat Kishinyov shahrida 2002-yil 10-oktyabrda tuzilgan "Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va munosabatlar to'g'risida"gi konvensiya hisoblanadi. Bugungi kunda xalq bilan muloqotni rivojlantirish, fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish, xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosini takomillashtirish O'zbekistonning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda Kishinyov konvensiyasiga a'zo bo'lish mamlakat hukumati tomonidan qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarish imkonini beradi. Kishinyov konvensiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, huquqiy himoyadan foydalanish tartibini belgilab beradi, o'zaro huquqiy yordamning turli shakl va ko'rinishlari, uni ko'rsatish, shuningdek sud qarorlarini o'zaro e'tirof etish va ijro etish tartibi va shartlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 12 iyuldan konvensiya a'zosi hisoblanadi.

Minsk konvensiyasidan farqli jihatdan, Kishinyov konvensiyasiga qo'shilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- iqtisodiy masalalarni hal etishga doir ishlarni tartibga soladi;
- Ozarboyjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonning vakolatli organlari tomonidan bevosita munosabatini amalga oshiradi;
- alohida hollarda faksimile aloqa bo'yicha yoki kommunikatsiya vositalarining boshqa turlaridan foydalangan holda topshiriqlarni yuboradi;
- fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha ekspertizalarni tashkillashtirish va o'tkazishda huquqiy yordam ko'rsatadi hamda ularni amalga oshirish va moliyalashtirish tartibini reglamentga soladi va boshqalar .

Dunyo bo'ylab rivojlanayotgan integratsiya jarayoni, davlatlar aholisining ko'lam jihatdan migratsiyasini oshib borayotgani davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama va ikki tomonlama chet el sud qarorlarini ijro etish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarni tuzishni taqozo etadi, odatda, belgilangan shartlarga javob beradigan sud qarorlari o'zaro kelishilgan davlatlar tomonidan tan olinadi va ijro etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xalqaro xususiy huquqda fuqarolik va oila huquqi masalalari bo'yicha xorijiy sud hujjatlarini ijro etish masalalari ortiqcha bo'g'inlar soni va huquqiy yordamga oid so'rovlarni qisqa muddatlarda amalga oshiruvchi tizim ishlab chiqilishi lozim. Dunyo davlatlarining hozirgi kunda mavjud konvensiyalarga a'zo bo'lishi esa mavjud muammolarni bir tomonlama hal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гетьман-Павлова-И.В. Международное частное право. 2013.
2. Богуславский. Международное частное право. 2005.
3. Xalqaro xususiy huquq darsligi. Mualliflar jamoasi. I.Rustambekov umumiy tahrirligi ostida. TDYU. 2019.
4. "Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va munosabatlar to'g'risida"gi Kishinyov konvensiyasi. 2002-yil 07-oktyabr.
5. "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk konvensiyasi. 1993-yil 22-yanvar.